

PUBLITSISTIK MATNLARDA MORFEMALI KONTRAKTSIYANING
IFODALANISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352520>

XOLMO‘MINOV Aziz

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A.

This article is devoted to the study of morpheme contraction in journalistic articles of the modern Chinese language.

Publitsistik lotincha “publicus” so‘zidan olingan bo‘lib, “ommaviy, ijtimoiy, davlatga tegishli” kabi ma‘nolarni anglatadi¹. Publitsistika (zamonaviy, dolzarb mavzulardagi ijtimoiy-siyosiy adabiyot) va publitsist (ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi asarlar muallifi) so‘zlari bilan o‘zakdosh. Etimologik jihatdan bu so‘zlar 1) tomoshabin, tinglovchi, tashrif buyuruvchi; 2) xalq, odamlar kabi ma‘nolarni anglatuvchi “publika” so‘zi bilan bog‘liq. Axborot berish, ommaviy ahamiyatga ega ma‘lumotni yetkazish bilan bir vaqtda o‘quvchi, tinglovchiga ta‘sir ko‘rsatib, uni biron-bir narsaga ishonitirish, muayyan g‘oya, qarashni singdirish, muayyan harakat va faoliyatga undash nutq publitsistik uslubining maqsadi hisoblanadi Muhim talablardan biri – u keng auditoriya uchun mo‘ljallangan, xalqchil bo‘lishi lozim.

Xitoy tilidagi publitsistik matn ko‘pincha ilmiy mulohaza shaklida quriladi: dolzarb ijtimoiy muammolar o‘rtaga tashlanadi, analiz qilinadi va yechim topish yo‘llari baholanadi. Fikr va mulohazalar sintezlanadi, xulosa qilinadi. Material qat‘iy mantiqiy izchillik asosida yoritiladi va shu bilan birga umumilmiy terminologiya qo‘llanadi. Ushbu xususiyatiga ko‘ra ilmiy uslubga yaqinlik mavjud. Ishonchlilik, dalillarning aniqligi, konkretlik, qat‘iy asoslanganlik xususiyatlarda ham ilmiy uslubga yaqinlik kuzatiladi. Publitsistik uslubning xususiyatlari mantiqiylik, obrazlilik, emotsionallik, baholash, chorlash va o‘ziga mos til vositalaridan iborat. Publitsistik matnlarda ijtimoiy-siyosiy leksika, turli sintaktik konstruksiyalar keng qo‘llanadi².

Publitsistik uslubdagi matnlarda so‘z yasashining morfemali kontraksiya usuli orqali yasalgan so‘zlar keng qo‘llaniladi. Xitoy tilshunoslik adabiyotlarida ushbu so‘z yasash usuli 简称 *jiancheng* termini, ya‘ni nomlarni qisqartirish, qisqartirilgan nominatsiya deb nomlanadi³.

Morfemali kontraksiya ko‘p bo‘g‘ inli leksik birliklarning qisqarishini nazarda tutadi. Ko‘p tarkibli so‘z va so‘z birikmalarini soddalashtirish – lug‘ aviy tarkibning amaldagi obyektiv ko‘rinishi bo‘lib xizmat qiladi. Leksik birliklarning qisqa, lo‘nda va turg‘ un bo‘lishiga xizmat qiladi.

Xitoy tilida murakkab qisqartirilgan so‘zlar 缩略语 “suō lüè yǔ”, 简称 “jiǎn chēng”, 略语 “lüè yǔ”, 并称 “bìng chēng”, 略称 “lüè chēng”, 省称 “shěng chēng”, 合称 “hé chēng”, 缩语 “suō yǔ” kabi terminlar bilan ifodalanadi. Ularning ortida morfemali kontraksiyaning bir qancha turlari ifodalanadi⁴.

Uch bog‘inli leksik birliklarda morfemali kontraksiya hodisasida bir morfema tushiriladi va shu tariqa ikki morfemadan iborat murakkab qisqartirilgan so‘z hosil bo‘ladi. Odatda ikkinchi

¹ Т.В. Жеребило. Словарь лингвистических терминов. — Назрань: Изд-во “Пилигрим”. — 2010. Стр.372.

² Wang Xijie. 汉语修辞法. — 北京出版社 1983. 274 页.

³ И.В. Горелов. Исследования по синтаксису китайского языка. — М.: 1968, с. 25-26.

⁴ S.A. Xashimova. “Xitoy tilida so‘z yasash”. T., 2012. – B.87.

morfema tushiriladi, birinchi morfema tushirilishi kam uchraydi. Masalan, 飞机场 “aeroport” – 飞 “uchmoq”, 机 “mashina”, 场 “maydon” > 机场; 外国语 “xorijiy til” – 外 “tashqari”, 国 “mamlakat”, 语 “til” > 外语;

Odatda, kontraksiya jarayoniga ikki bo‘g‘inli izohlovchi va bir bo‘g‘inli izohlanuvchi qismdan iborat leksik birliklar ko‘proq jalb etiladi.

To‘rt bo‘g‘inli leksik birliklar kontraksiyasida ikki morfema tushiriladi va ikki bo‘g‘inli murakkab qisqartirilgan so‘z hosil bo‘ladi. Strukturani qayta qurish va qisqartirish jarayonida turli ko‘rinishdagi modellarni ko‘rishimiz mumkin. Leksik birlikning ikkinchi va uchinchi morfemalarini tushirilishi eng ko‘p uchraydigan model sanaladi. Masalan, 扫除文盲 “savodsizlik likvidatsiyasi” birikmasi 扫除 “likvidatsiya” va 文盲 “savodsizlik” so‘zlariga ajratiladi, so‘ng 除 va 文 morfemalari tushirilib, 扫盲 “savodsizlik likvidatsiyasi” ko‘rinishi hosil qilinadi. Yuqoridagi kontraksiya modeli asosidagi publitsistik matnlarda uchraydigan ayrim misollarni ko‘rib chiqamiz⁵:

国家制度 – 国家 *mamlakat, davlat*; 制度 *tuzilma, tuzum* > 国制 *davlat tuzumi*; 国家体制 – 国家 *mamlakat, davlat*; 体制 *tizim, qurilish, tuzum* > 国体 *davlat shakli*;

政治体制 – 政治 *siyosat*, 体制 *tizim, qurilish, tuzum* > 政体 *siyosiy tizim*; 政治权力 – 政治 *siyosat*, 权力 *huquq, hokimiyat* > 政权 *siyosiy hokimiyat*;

专政制度 – 专政 *diktatura*, 制度 *tizim, qurilish* > 专制 *diktatura*;

政治党派 – 政治 *siyosat*, 党派 *partiya, guruh* > 政党 *siyosiy partiya*;

欧洲联盟 – 欧洲 *Yevropa*, 联盟 *ittifoq* > 欧盟 *Yevropa Ittifoqi*;

Besh bo‘g‘inli birikmalar kontraksiyasi natijasida ikki, uch (kam uchraydi) morfemalar tushiriladi. Natijada uch yoki ikki morfemali murakkab qisqartirilgan so‘zlar hosil bo‘ladi. Birinchi turga so‘z birikma strukturasi o‘zgarishining turli modellari xos bo‘lib, ikkinchi va to‘rtinchi hamda uchinchi va to‘rtinchi morfemalar tushiriluvchi ikki model sermahsul hisoblanadi. Ikkinchi turda murakkab qisqartirilgan so‘zlar ikkinchi, to‘rtinchi va beshinchi morfemalar tushiriluvchi model orqali hosil qilinadi.

外国的援助 – 外国的 *xorijiy*, 援助 *qo‘llab quvvatlamoq, ko‘mak*; 外援 *xorijiy madad*;

外国的资金 – 外国的 *xorijiy*, 资金 *kapital, mablag‘, resurs*; 外金 *xorijiy kapital*;

联合国大会 – 联合国大会 *Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi* > 联大;

安全理事会 – 安全理事会 *Xavfsizlik ittifoqi* > 安理会;

Quyida morfemali kontraksiyaning “节略” “tushirish” usuliga oid ba’zi qisqartmalarni ko‘rib chiqamiz. Ushbu usulning mohiyatida so‘z birikmasining maxsus nom, nominatsiyani anglatuvchi qismini qoldirib, qolgan qismini tushirishni nazarda tutiladi.

欧洲安全与合作会议 *Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti* > 欧安会;

世界贸易组织 *Butunjahon Savdo Tashkiloti* > 世贸组织 (WTO);

中国人民解放军 *Xitoy Xalq Qutqaruv Armiyasi* > 解放军;

中国人民对外友好协会 *Xitoy xalq xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik uyushmasi* > 对外友协;

中国人民政治协商会议 *Xitoy xalq siyosiy konsultativ ittifoqi* > 全国政协 (全国 “butun mamlakat”);

中国全国总工会 *Butunxitoy kasaba uyushmalari federatsiyasi* > 全总;

中国共产党 *Xitoy Kommunistik partiyasi* > 中共;

中国共产党中央委员会 *Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi* > 中共中央;

⁵ И.Войцехович, А.Ф.Кодрашевский. Общественно-политический перевод. М., «Муравей», 2002 г., стр.61

I.D.Klenin morfemali kontraksiyaning turfa ko‘rinishi xususida quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi: “kontraksiya natijasida, odatda, muvaqqat, noturg‘un, fonetik butunlik va shaklga ega bo‘lmagan (talaffuz qilinganda birinchi va ikkinchi komponent orasida to‘xtalish mavjud) terminologik jamlanmalar (kompleks) vujudga keladi, shunday bo‘lsada, muomalada ulardan doimiy foydalanish natijasida leksikalizatsiya imkoniyatini inkor etmaydi”⁶. Ko‘rinib turibdiki, murakkab qisqartirilgan so‘zlar xitoy tili leksik lug‘atida kun sayin mustahkam o‘ringa ega bo‘lib kelmoqda. Xususan, publitsistik matnlarda ulardan keng foydalanish muloqot doirasining kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Publitsistik matnlarda murakkab qisqartirilgan so‘zlar shaklan tuzilishi oddiy so‘zlar bilan o‘xshash bo‘lsada, aksariyat hollarda murakkab ma’nolarni ifodalaydi. Murakkab qisqartirilgan so‘zlar o‘ziga mos keladigan to‘liq so‘z birikmalari bilan bir qatorda qo‘llanadi. Zarurat tug‘ilgan hollarda og‘zaki va yozma muomalada to‘liq so‘z birikmalari ishlatilishi ham mumkin. Ko‘pincha murakkab qisqartirilgan so‘z o‘zining mos keladigan to‘liq shaklini muloqotdan chiqarib yuboradi, shunda uning to‘liq shaklini faqat ma’lumot beruvchi materiallar yordamida tiklash mumkin. Morfemali kontraksiya hodisasi abbreviatsiyaning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, xitoy tilida boshqa til sistemalaridan farqli ravishda elementar birliklarning morfologik va semantik xususiyatlariga tayanadi, shuning uchun chuqur va kengroq chegaralarni qamrab oladi. Qisqartma so‘zlarning yuzaga kelishi vatqni tejash zaruriyati hamda maksimal miqdordagi ma’lumotni minimal hajmli vositalar orqali yetkazishga intilish bilan bog‘liq.

REFERENCES

1. Войцехович И., Кодрашевский А.Ф. Общественно-политический перевод. – М., «Муравей», 2002 г. – 185с.
2. Горелов. В.И. Лексикология китайского языка. – М.: Просвещение, 1984. – 370с.
3. Кленин И. Д. Морфемная контракция и ее типы в современном китайском языке. – Вопросы языкознания, 1975, №2, стр.96-97.
4. Кубрякова Е.С. Что такое словообразование. – М.: “Наука”, 1965. – 254с.
5. Li Xinzun, Xun Liangfen. 流语说字. –上海出版社, 1986. 410 页.
6. Ren Xueliang. 汉语造字法. –北京: 中国社会科学出版社, 1981. 278 页.
7. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
8. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
9. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с (р. 361).
10. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
11. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
12. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.

⁶ Кленин И. Д. Морфемная контракция и ее типы в современном китайском языке. – Вопросы языкознания, 1975, №2, стр.96-97.

13. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
14. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
15. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
16. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
17. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
18. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
19. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
20. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化 · 87, 0
21. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
22. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019